

Sapar loyihasining qisqacha bayoni

Umumiy foydalanishdagi mikromobillik faoliyati

steer

Mundarija

1. KIRISH.....	3
1.1. Umumiy ma'lumot	3
1.2. Ekologik va ijtimoiy baholashning maqsadi	4
1.3. YTTB toifalashi	4
2. LOYIHA TAVSIFI	5
2.1. Loyiha haqida umumiy ma'lumot	5
2.2. Faoliyat turlari	5
2.3. Faoliyat infratuzilmasi	5
2.4. Raqamli platforma va faoliyatni boshqarish tizimlari	5
2.5. Geografik qamrov va kengayish.....	6
2.6. Loyihaning barqarorlik maqsadlari	6
3. SIYOSIY, HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLAR.....	6
3.1. Umumiy ma'lumot	6
3.2. YTTBning qo'llaniladigan ekologik va ijtimoiy talablari	7
3.3. Milliy tartibga solish asoslari.....	7
3.4. Shahar darajasidagi faoliyat va harakatlanish nazorati	7
3.5. Xalqaro standartlar va tarmoqdagi ilg'or amaliyot	7
3.6. Ekologik va ijtimoiy baholash bo'yicha xulosalar	8
4. EKOLOGIK VA IJTIMOY BOSHLANG'ICH SHAROITLAR.....	8
4.1. Amaldagi faoliyat haqida umumiy ma'lumot.....	8
4.2. Ekologik boshlang'ich holat	9
4.3. Mehnat va ijtimoiy boshlang'ich holat	9
4.4. Mehnat salomatligi va xavfsizligining boshlang'ich holati	10
4.5. Jamoatchilik salomatligi va xavfsizligining boshlang'ich holati	11
5. ASOSIY EKOLOGIK VA IJTIMOY MASALALAR VA ULARNI YUMSHATISH CHORALARI	12
5.1. Ekologik va ijtimoiy talablarning birinchisi: xavf hamda ta'sirlarni baholash va boshqarish	12
5.2. Ikkinchi ekologik va ijtimoiy talab: mehnat va ish sharoitlari	13
5.3. Uchinchi ekologik va ijtimoiy talab: resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish	13
5.4. To'rtinchi ekologik va ijtimoiy talab: sog'liq va xavfsizlik	14
5.5. O'ninchi ekologik va ijtimoiy talab: axborotni oshkor etish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish.....	15

6. EKOLOGIK VA IJTIMOY HARAkatLAR REJASI (EIHR)	15
6.1. Ekologik va ijtimoiy talablarning birinchisi: xavf hamda ta'sirlarni baholash va boshqarish	15
6.2. Ikkinchi ekologik va ijtimoiy talab: mehnat va ish sharoitlari	15
6.3. Uchinchi ekologik va ijtimoiy talab: resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish	16
6.4. To'rtinchi ekologik va ijtimoiy talab: sog'liq va xavfsizlik	16
6.5. O'ninchi ekologik va ijtimoiy talab: axborotni oshkor etish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish.....	16
6.6. Amalga oshirish va monitoring	16
7. IJOBIY EKOLOGIK VA IJTIMOY SAMARALAR	17
8. MANFAATDOR TOMONLARNI JALB QILISH VA ALOQALAR	17
9. XULOSA	19

1. KIRISH

1.1. Umumiy ma'lumot

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) Qozog'iston, Ozarbayjon, O'zbekiston va Gruziya kabi bir nechta mamlakatda Jet ko'rsatadigan umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlarini kengaytirish hamda yuritishga qaratilgan Sapar loyihasini (keyingi o'rinlarda "Loyiha") moliyalashtirish masalasini ko'rib chiqmoqda.

Jet shahar hududlarida umumiy foydalanishdagi elektr mikromobillik xizmatlarini raqamli platforma orqali ko'rsatadi. Ushbu platforma mobil ilovalar, transport parkini boshqarish tizimlari, xizmat markazlari, akkumulyatorlarni zaryadlash va saqlash infratuzilmasi, logistika hamda mijozlar bilan ishlash kanallarini birlashtiradi. Kompaniyaning ish modeli gaz emissiyasi kam bo'lgan transport muqobillari yordamida safarning boshlang'ich va yakuniy qismlarini bog'laydi. Parkni kuzatish, foydalanuvchilar bilan ishlash va rejalashtirishda raqamli boshqaruv, telematika, geohududiy cheklash hamda ish ma'lumotlari qo'llanadi.

Kompaniya belgilangan hududlarda elektr skuter va velosipedlarni joylashtiradi, zaryadlaydi, ularga texnik xizmat ko'rsatadi, ta'mirlaydi hamda qayta taqsimlaydi.

Loyiha yirik sanoat obyektlari, ishlab chiqarish quvvatlari yoki ilgari o'zlashtirilmagan hududda yangi infratuzilma barpo etishni nazarda tutmaydi. Ishlar asosan shaharlardagi mavjud tijorat va sanoat binolarida, jumladan xizmat markazlari hamda omborlarda bajariladi.



1.2. Ekologik va ijtimoiy baholashning maqsadi

YTTBning 2024-yildagi Ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq Loyiha bo'yicha baholash o'tkazildi. Unda tegishli ekologik va ijtimoiy talablar (EITlar), amaldagi milliy me'yorlar hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyoti hisobga olindi.

Baholashning maqsadi quyidagilardan iborat edi:

- Loyihaning ekologik va ijtimoiy xavflari hamda ta'sirlarini aniqlash va baholash;
- Kompaniyaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimlari, siyosatlari hamda nazorat choralari ko'rib chiqish;
- Amaldagi tartibga solish talablari va YTTBning ekologik hamda ijtimoiy talablariga muvofiqlikni baholash;
- Ekologik va ijtimoiy samaradorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini aniqlash;
- Mehnat salomatligi va xavfsizligi, ish munosabatlari hamda jamoatchilikni himoya qilish tartiblarini baholash; hamda
- YTTB talablari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga bosqichma-bosqich muvofiqlashish uchun Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (EIHR) ishlab chiqish.

Ekologik va ijtimoiy baholash quyidagilarni qamrab oldi:

- Kompaniya hujjatlari, siyosatlari, tartib-taomillari va ochiq manbalardagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish;
- Amaldagi huquqiy va tartibga solish talablarini ko'rib chiqish;
- Boku (Ozarbayjon), Olmaota (Qozog'iston) va San-Paulu (Braziliya) shaharlaridagi obyektlarga tashrif buyurish;
- Kompaniya xodimlari va ishchi guruhlar bilan suhbat o'tkazish; hamda
- Atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, mehnat salomatligi va xavfsizligi, jamoatchilikni himoya qilish, yo'l harakati hamda ishlarni boshqarish tartiblarini baholash.

1.3. YTTB toifalashi

Ekologik va ijtimoiy baholash natijalariga ko'ra, Loyiha YTTB siyosati asosida B toifaga kiritildi.

Loyihaning ekologik va ijtimoiy ta'sirlari asosan kundalik ishlar bilan bog'liq, muayyan obyektga xos va qaytariladigan xususiyatga ega. Ularni tegishli yumshatish choralari hamda boshqaruv tizimlari orqali samarali nazorat qilish mumkin. Asosiy masalalar mehnat sharoitlari, xodimlar va jamoatchilik salomatligi, yo'l harakati xavfsizligi, akkumulyatorlar hamda chiqindilarni boshqarish, manfaatdor tomonlarni jalb etish va ekologik-ijtimoiy boshqaruvdan iborat.

Baholash doirasida Loyihani YTTBning tegishli ekologik va ijtimoiy talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga bosqichma-bosqich moslashtirish uchun EIHR ishlab chiqildi.

2. LOYIHA TAVSIFI

2.1. Loyiha haqida umumiy ma'lumot

Jet tasdiqlangan shahar hududlarida raqamli platforma orqali elektr skuter va velosipedlarni qisqa muddatga ijaraga beradi. Mazkur xizmat shahar transport tizimidagi safarning boshlang'ich hamda yakuniy qismlarini bog'laydigan moslashuvchan, qisqa masofali muqobilni taqdim etadi. Foydalanuvchi mobil ilovada yaqin transport vositasini topadi, qulfini ochadi, boshqaradi va safar haqini to'laydi. Kompaniya parkida asosan elektr skuterlar mavjud.

YTTB investitsiyasi ikki yo‘nalishga sarflanadi: kompaniyaning Markaziy Osiyo va Kavkazdagi elektr skuterlar parkini kengaytirish hamda Jetga tegishli yangi dasturiy ta‘minotni birgalikda moliyalashtirish. Yangi dastur Rossiyada yaratilgan eski yechimga qaramlikni kamaytirib, ish samaradorligi, xizmat sifati va me‘yoriy talablarga muvofiqlikni yaxshilaydi. Ushbu tadbirlar safarning boshlang‘ich va yakuniy qismlaridagi bog‘lanishni kuchaytiradi, qisqa masofalar uchun gaz emissiyasi kam bo‘lgan transportni ommalashtiradi hamda barqaror shahar harakatlanishiga xizmat qiladi.

2.2. Faoliyat turlari

Kompaniya umumiy foydalanishdagi elektr skuterlarni joylashtirish, akkumulyatorlarni zaryadlash va almashtirish, texnik ko‘rik hamda ta‘mirlash, parkni qayta taqsimlash, logistika, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va raqamli tizimlarni yuritish bilan shug‘ullanadi. Bu ishlar dala xodimlari, xizmat markazlari, omborlar hamda raqamli park boshqaruvining uyg‘un faoliyati orqali bajariladi.

Parking mavjudligi, ishonchliligi va xavfsizligini saqlash uchun skuterlar hamda litiy-ion akkumulyatorlar yig‘iladi, zaryadlanadi, tashiladi, ko‘zdan kechiriladi, ta‘mirlanadi va qayta joylashtiriladi. Bu jarayon parkni qayta taqsimlash hamda texnik ko‘rik ishlarini ham qamrab oladi.

2.3. Faoliyat infratuzilmasi

Loyiha infratuzilmasiga xizmat markazlari, ta‘mirlash ustaxonalari, omborlar, akkumulyatorlarni zaryadlash va saqlash joylari, maxsus transport vositalari, parking raqamli boshqaruvi, mijozlar bilan ishlash hamda operatsion nazorat tizimlari kiradi.

Obyektlar odatda mavjud tijorat yoki sanoat hududlarida joylashadi hamda elektr, suv va kanalizatsiya kabi shahar tarmoqlaridan foydalanadi.

Loyiha skuter yoki akkumulyator ishlab chiqarishni, yirik sanoat jarayonlarini yoxud ilgari o‘zlashtirilmagan hududda katta infratuzilma qurishni nazarda tutmaydi.

2.4. Raqamli platforma va faoliyatni boshqarish tizimlari

Kompaniyaning ish modeli parkni yuritish, foydalanuvchilar bilan aloqa va rejalashtirishda raqamli tizimlar hamda bulutli platformalarga tayanadi.

Jet va GoJet mobil ilovalari foydalanuvchiga skuteri topish, qulfini ochish, boshqarish va safar haqini to‘lash imkonini beradi. Unda foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan tanishish, muammo yoki hodisa haqida xabar yuborish ham mumkin.

Raqamli boshqaruv vositalari parkni kuzatish, geohududiy cheklov va tezlikni belgilash, ishlarni rejalashtirish, xodimlarni muvofiqlashtirish, akkumulyatorlar holatini nazorat qilish, mijozlar bilan ishlash hamda samaradorlikni muntazam o‘lchashga xizmat qiladi.

Shu sababli raqamli tizimlar va telematika kompaniyaning kundalik ishlar hamda xavflarni boshqarish tuzilmasida muhim o‘rin tutadi.

2.5. Geografik qamrov va kengayish

Kompaniya hozir bir nechta xalqaro bozorda ishlaydi va xizmatlarini yangi shahar hamda mamlakatlarda kengaytirishni rejalashtirgan.

Ishlarga mahalliy infratuzilma, shahar hokimiyati talablari va me‘yoriy asoslar ta‘sir qiladi. Ular tezlik, geohududiy cheklov, to‘xtash joyi, foydalanuvchining xizmatdan foydalanish huquqi hamda ma‘lumot almashuviga oid qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Yangi hududga kirishda kompaniya mahalliy infratuzilma, yo'l harakati sharoiti, foydalanuvchilar talabi va amaldagi me'yorlarni hisobga oladi.

2.6. Loyihaning barqarorlik maqsadlari

Loyiha kam uglerodli harakatlanish yechimlarini ommalashtiradi va qisqa masofalarda gaz emissiyasi yuqori bo'lgan transportga qaramlikni kamaytiradi. Shuningdek, u safarning boshlang'ich hamda yakuniy qismlarini bog'lash, integratsiyalashgan shahar tizimlarini rivojlantirish va issiqxona gazlari hajmini qisqartirish orqali barqaror transport maqsadlariga hissa qo'shadi.

Baholashda ko'rib chiqilgan ma'lumotlarga ko'ra, kompaniya platformadagi ayrim safarlar aks holda gaz emissiyasi yuqori bo'lgan transportda amalga oshirilgan bo'lishini taxmin qiladi. Shu tariqa Loyiha shahar qatnovi bilan bog'liq issiqxona gazlari miqdorini kamaytirishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, Loyiha YTTBning korporativ ulushli kapital metodologiyasi bo'yicha Parij bitimining iqlim o'zgarishini yumshatish maqsadlariga mos deb topildi.

3. SIYOSIY, HUQUQIY VA INSTITUTIONAL ASOSLAR

3.1. Umumiy ma'lumot

Baholash YTTBning 2024-yildagi Ekologik va ijtimoiy siyosati asosida o'tkazildi. Unda tegishli EITlar, milliy me'yorlar hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyoti hisobga olindi.

Baholash Loyihaning ishlash mamlakatlarida amal qiladigan ekologik me'yorlar, mehnat munosabatlari, xodimlar va jamoatchilik salomatligi, xavfsizlik, manfaatdor tomonlar bilan aloqa hamda operatsion xatarlarni boshqarish talablarini qamrab oldi.

Ekologik va ijtimoiy baholash umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlarining xususiyatlarini ham hisobga oldi. Jumladan, yo'l xavfsizligi, jamoat infratuzilmasi, raqamli tizimlar va foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalar ko'rib chiqildi.

3.2. YTTBning qo'llaniladigan ekologik va ijtimoiy talablari

Loyiha YTTBning 2024-yildagi Ekologik va ijtimoiy siyosatida belgilangan quyidagi EITlar bo'yicha baholandi:

- 1. EIT: Ekologik va ijtimoiy xavf hamda ta'sirlarni baholash va boshqarish;
- 2. EIT: Mehnat va ish sharoitlari;
- 3. EIT: Resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish;
- 4. EIT: Sog'liq, xavfsizlik va himoya; hamda
- 10. EIT: Manfaatdor tomonlarni jalb qilish.

Loyihaning xususiyati va ko'lamiga ko'ra, quyidagi EITlar tatbiq etilmaydi deb topildi:

- 5. EIT: Yer sotib olish, yerdan foydalanishni cheklash va majburiy ko'chirish;
- 6. EIT: Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va tirik tabiiy resurslarni barqaror boshqarish;
- 7. EIT: Tub xalqlar;
- 8. EIT: Madaniy meros; hamda
- 9. EIT: Moliyaviy vositachilar.

Baholashning asosiy vazifasi kundalik ishlar bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy xavflarni aniqlashdan iborat bo'ldi. Shuningdek, kompaniyaning boshqaruv tizimlari, tartib-taomillari hamda nazorat choralari YTTB talablari bilan qiyoslandi.

3.3. Milliy tartibga solish asoslari

Ekologik va ijtimoiy baholash Loyiha uchun tegishli milliy talablarni ko'rib chiqdi. Ular atrof-muhit, mehnat munosabatlari, xodimlar salomatligi va xavfsizligi, chiqindilar, transport, jamoat sog'lig'i, ma'lumotlarni himoya qilish hamda boshqa tartibga solish sohalarini qamrab oldi.

Kompaniya ishiga shaharlarda umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlari uchun belgilangan munitsipal nazorat choralari va harakatlanishni boshqarish tizimlari ham ta'sir qiladi.

3.4. Shahar darajasidagi faoliyat va harakatlanish nazorati

Xizmatlar shahar darajasidagi qoidalarga ham bo'ysunadi. Ular to'xtash joylari, geohududiy cheklov, tezlik, foydalanuvchining xizmatga kirish huquqi, ish hududlari, parkni joylashtirish va yo'l harakatini boshqarishni qamrab oladi. Talablar mahalliy infratuzilma, qatnov sharoiti hamda munitsipal yondashuvga qarab farqlanadi.

3.5. Xalqaro standartlar va tarmoqdagi ilg'or amaliyot

Milliy me'yorlar va YTTB standartlaridan tashqari, ekologik va ijtimoiy baholash tegishli xalqaro normalarni ham ko'rib chiqdi. Ular ekologik-ijtimoiy boshqaruv, xodimlar salomatligi, mehnat xavfsizligi, chiqindilar, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, yo'l harakati, ish munosabatlari va manfaatdor tomonlar bilan aloqaga taalluqlidir. Yaxshi xalqaro tarmoq amaliyoti ham e'tiborga olindi.

Shuningdek, umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlari, ish jarayoni xavfsizligi va akkumulyatorlar bilan muomala qilishga doir xalqaro ilg'or tajribalar hisobga olindi.

3.6. Ekologik va ijtimoiy baholash bo'yicha xulosalar

Baholash natijasida kompaniyaning tashrif buyurilgan obyektlardagi ishlari tegishli milliy me'yorlarga umuman olganda muvofiq ekani kuzatildi. Shu bilan birga, umumiy foydalanishdagi mikromobillikni tartibga soluvchi qoidalar ayrim mamlakat va shaharlarda hanuz rivojlanmoqda. Xavfsiz ishlash, foydalanuvchilarni nazorat qilish, to'xtash joylari, ma'lumotlarni birlashtirish va me'yorlarga rioya etilishini kuzatishga doir talablar kuchayib bormoqda.

Mavjud ma'lumotlar asosida jiddiy nomuvofiqlik aniqlanmadi. Biroq YTTB talablari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga doimiy moslik uchun ekologik-ijtimoiy boshqaruv, mehnat xavfsizligi, xodimlar bilan ishlash, samaradorlikni kuzatish hamda hujjat nazoratini kuchaytirish zarur. Boshqaruv tizimlarini takomillashtirish imkoniyatlari ham belgilandi.

Shu maqsadda kompaniya ishlaydigan barcha mamlakatlarda ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimlari hamda nazorat choralari bosqichma-bosqich kuchaytirishga qaratilgan EIHR ishlab chiqildi. Rejaning asosiy mazmuni va tavsiya etilgan yumshatish choralari ushbu sodda va qisqacha bayonning 6-bo'limida keltirilgan.

4. EKOLOGIK VA IJTIMOY BOSHLANG'ICH SHAROITLAR

4.1. Amaldagi faoliyat haqida umumiy ma'lumot

Kompaniya asosan xizmat ko'rsatadi, uning ishlari sanoat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega emas. Jarayonlar odatda shaharlar ichidagi mavjud tijorat yoxud sanoat obyektlarida, jumladan xizmat markazlari, omborlar va akkumulyatorlarni zaryadlash joylarida amalga oshiriladi.

Loyiha raqamli platformalar, dala ishlari, texnik ko'rik, akkumulyatorlarni boshqarish va mijozlarga xizmat ko'rsatish orqali umumiy foydalanishdagi elektr skuterlar parkini yuritishni nazarda tutadi. Asosiy vazifalar zaryadlash va almashtirish, skuterlarni tekshirish hamda ta'mirlash, parkni qayta taqsimlash, ombor ishlari, mijozlar bilan aloqa va raqamli nazoratdan iborat.

Parkning mavjudligi, ishonchiligi va xavfsizligini saqlash uchun skuterlar hamda litiy-ion akkumulyatorlar yig'iladi, zaryadlanadi, saqlanadi, tekshiriladi, ta'mirlanadi va qayta joylashtiriladi.

Transport vositalarini hududlar bo'yicha qayta taqsimlashga yo'l harakati sharoiti, foydalanuvchilar talabi hamda rejalashtirish natijalari ta'sir qiladi.

Raqamli tizimlar va telematika parkni kuzatish, ishlarni rejalashtirish, geohududiy cheklov qo'yish, vazifalarni taqsimlash, hodisalarga javob berish hamda samaradorlikni muntazam o'lchashga xizmat qiladi. Tashrif buyirilgan obyektlar elektr, suv va kanalizatsiya kabi mavjud shahar tarmoqlaridan foydalangan. Loyiha doirasida yirik ishlab chiqarish, sanoat jarayoni yoki katta ko'lamli doimiy infratuzilma aniqlanmadi.

Ishlar shahar muhitida bajarilgani uchun ularning samaradorligi va xavflarni nazorat qilish yo'l harakati, jamoat infratuzilmasi, foydalanuvchilar xatti-harakati hamda mahalliy harakatlanish qoidalariga bevosita bog'liq.

4.2. Ekologik boshlang'ich holat

Kompaniya asosan xizmat ko'rsatadi va yirik sanoat ishlab chiqarishi yoki doimiy infratuzilmani nazarda tutmaydi. Shu bois ekologik jihatlar kichik miqyosdagi resurs sarfi, chiqindi hosil bo'lishi, akkumulyatorlar bilan muomala va logistika bilan cheklanadi.

Elektr energiyasi asosan litiy-ion akkumulyatorlarni zaryadlashga sarflanadi. Yoqilg'i esa parkni qayta taqsimlash va tashishda ishlatiladigan logistika transporti uchun qo'llanadi.

Loyihada suv sarfi nisbatan kam bo'lib, u asosan skuterlarni yuvish va obyektlardagi maishiy ehtiyojlarga to'g'ri keladi. Oqova suvlar mavjud shahar kanalizatsiyasiga chiqariladi; baholashda tabiiy havzalarga bevosita oqizish holati aniqlanmadi.

Asosiy oqimlar maishiy va qadoqlash chiqindilari, shikastlangan skuter qismlari, elektron uskunalar, xizmat muddati tugagan akkumulyatorlar hamda texnik ko'rikda hosil bo'ladigan oz miqdordagi xavfli chiqindidan iborat.

Litiy-ion akkumulyatorlar saqlash, zaryadlash, tashish va xizmat muddati tugagach qayta ishlashga topshirish bilan bog'liq ehtimoliy xavflar sababli muhim ekologik jihat hisoblanadi. Texnik ko'rikda oz miqdorda bo'yoq, erituvchi va boshqa kimyoviy moddalar ishlatilishi mumkin.

Baholashda havoga sezilarli sanoat yoki texnologik gaz emissiyasi aniqlanmadi. Mavjud emissiyalar asosan elektr energiyasi iste'moli hamda logistika transporti bilan bog'liq.

Baholash kompaniya chiqindilar, akkumulyatorlar va texnik ko'rik jarayonlari uchun nazorat choralarini joriy etganini ko'rsatdi. Biroq barcha ish yo'nalishlarida ekologik kuzatuv va samaradorlik hisobini kuchaytirish mumkin.

Takomillashtirish yo'nalishlari resurs sarfini kuzatish, chiqindilar va qayta ishlash hajmini hisobga olish, issiqxona gazlarini o'lchash, oqova suvlarni nazorat qilish hamda turli hududlardagi ekologik samaradorlik ma'lumotlarini birlashtirishdan iborat.

Baholash YTTB talablari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiq ekologik kuzatuv hamda resurslardan samarali foydalanish tizimini yanada kuchaytirish mumkinligini ko'rsatdi.

4.3. Mehnat va ijtimoiy boshlang'ich holat

Kompaniya ishlaydigan mamlakatlarda bevosita yollangan va shartnoma asosidagi xodimlar mehnatidan foydalanadi. Ular umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlari bilan bog'liq asosiy hamda yordamchi vazifalarni bajaradi.

Mehnat vazifalariga skuterlarni ko'rikdan o'tkazish va ta'mirlash, akkumulyatorlarni zaryadlash hamda almashtirish, parkni qayta taqsimlash, logistika, ombor ishlari, mijozlar bilan aloqa va raqamli boshqaruv kiradi.

Xodimlarning katta qismi skuter va akkumulyatorlarni yig'ish, zaryadlash, tashish hamda qayta taqsimlash bilan bog'liq dala ishlarini bajaradi. Ularning sharoitiga yo'l harakati, ish jadvali, ob-havo, jamoat infratuzilmasi va boshqa qatnov ishtirokchilari bilan munosabat ta'sir qiladi.

Kompaniya teng imkoniyatlar, bolalar va majburiy mehnatning oldini olish, ish joyidagi xulq-atvor, gender asosidagi zo'ravonlik hamda tazyiq, mehnat sharoitlari va xodimlar xavfsizligiga oid siyosatlarni joriy etgan.

Xodimlar ish tartibi, haq to'lash va ta'til huquqlarini belgilovchi yozma shartnomalar asosida qabul qilinadi. Asosiy, texnik va dala vazifalarini bajaruvchilarga tegishli o'qitish hamda shaxsiy himoya vositalari beriladi.

Kompaniya obyektlarda nazorat, dam olish joylari, sanitariya sharoiti va birinchi yordam vositalarini o'z ichiga olgan farovonlik tartiblarini joriy etgan. Shuningdek, milliy qonunchilikka muvofiq xodimlar mahalliy sog'liqni saqlash hamda sug'urta tizimlari orqali tibbiy yordam olishi mumkinligi ma'lum qilindi.

Baholash davomida mehnat qonunchiligi buzilishi yoki nizolar aniqlanmadi. Obyektlarga tashrif chog'ida o'tkazilgan suhbatlar ham ish sharoiti yoxud xodimlarga munosabat bo'yicha jiddiy muammo borligini ko'rsatmadi.

Boshlang'ich yo'riq, ishga moslashtirish, mehnat tartib-taomillari, psixososial xavflar va hujjat yuritishni takomillashtirish imkoniyatlari aniqlandi. Bu jarayonlarni kompaniyaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimiga kiritish ham tavsiya etildi.

4.4. Mehnat salomatligi va xavfsizligining boshlang'ich holati

Loyiha dala ishlari, akkumulyatorlarni zaryadlash va tashish, texnik ko'rik, logistika, yuklarni qo'lda ko'tarish hamda yo'l harakati bilan bog'liq kasbiy xavflarni yuzaga keltiradi.

Asosiy kasbiy xavflarga yo'l-transport hodisalari, qo'lda ko'tarishdan keladigan jarohatlar, akkumulyator va elektr bilan bog'liq xatarlar, sirpanish, qoqilish, yiqilish, yong'in, ergonomik hamda psixososial omillar kiradi.

Dala xodimlari akkumulyatorlarni almashtirish, skuterlarni yig'ish, parkni qayta taqsimlash va logistika vaqtida shahar yo'l harakati bilan bevosita aloqada bo'ladi. Shu bois ish jarayonidagi yo'l xavfsizligi kompaniya uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

Kompaniya yong'in va elektr xavfsizligi, akkumulyatorlar bilan ishlash, yuklash-tushirish, uskunalardan foydalanish, birinchi yordam hamda kimyoviy moddalar bilan muomala qilishga oid siyosat va standart tartiblarni joriy etgan.

Tashrif vaqtida xodimlarning vazifasiga mos shaxsiy himoya vositalaridan foydalanayotgani kuzatildi. Obyektlarda asosiy yong'inga qarshi jihozlar, birinchi yordam anjomlari va farovonlik uchun zarur sharoitlar mavjud edi.

Baholash obyektlarda elektr xavfsizligi bo'yicha malakali, sertifikatlangan mutaxassislar ishlashini ko'rsatdi. Ko'rilgan uskunalar umuman olganda to'g'ri yerga ulangan edi.

Kompaniya xodimlar ishga kirishdan oldin va keyinchalik davriy tibbiy ko'rikdan o'tishini ma'lum qildi. Ular mahalliy sug'urta tizimlari orqali tibbiy xizmatlardan foydalanishi ham mumkin.

Bir qator tartiblar mavjud bo'lsa-da, mehnat salomatligi va xavfsizligini boshqarish tizimini yanada mustahkamlash imkoniyatlari aniqlandi.

Takomillashtirish yo'nalishlariga rasmiy xavf bahosi, hodisalarni tekshirish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, mehnat xavfsizligi ko'rsatkichlarini kuzatish va psixososial omillarni boshqarish kiradi. Ish jarayoni xavfsizligi haqidagi ma'lumotlarni kengroq boshqaruv tizimlariga kiritish ham zarur.

Umuman olganda, kompaniya mehnat salomatligi va xavfsizligi bo'yicha asosiy tartiblarni yaratgan. Biroq ularni YTTB talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga mos ravishda boshqarish va muntazam kuzatishni kuchaytirish mumkin.

4.5. Jamoatchilik salomatligi va xavfsizligining boshlang'ich holati

Loyihaning jamoatchilik salomatligi va xavfsizligiga ehtimoliy ta'siri asosan shaharlardagi umumiy foydalanishdagi elektr skuter xizmatlaridan kelib chiqadi. Bu ta'sir foydalanuvchilar, piyodalar, jamoat infratuzilmasi va boshqa yo'l harakati ishtirokchilari o'rtasidagi aloqaga bog'liq.

Loyiha shaharlarda umumiy foydalanishdagi elektr skuterlarni joylashtirishni nazarda tutadi. Shu sababli piyodalar, velosipedchilar, avtomobillar, jamoat transporti, shahar infratuzilmasi va zaif qatnov ishtirokchilari, jumladan bolalar, keksalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar bilan muntazam aloqa yuzaga keladi.

Kompaniya mikromobillik xizmatlarini xavfsiz joriy etish uchun tezlikni boshqarish, geohududiy cheklov, to'xtash joylarini nazorat qilish, foydalanuvchi huquqini tekshirish, ilovadagi ko'rsatmalar, skuterlarni davriy ko'rikdan o'tkazish va belgilangan zonalarda ishlash qoidalarini qo'llaydi. Piyodalar, jamoat infratuzilmasi hamda boshqa qatnov ishtirokchilari uchun xatarni kamaytirish maqsadida tegishli hududlarda tezlik va harakat doirasi avtomatik cheklanadi.

Amaldagi nazorat choralariga qaramay, elektr skuterlarning jamoat joylarida ishlatilishi salomatlik va xavfsizlikka oid ayrim tabiiy xatarlarni saqlab qoladi.

Jamoatchilikni yo'l xavfsizligi, foydalanuvchi va piyodalar o'rtasidagi munosabat, zaif qatnov ishtirokchilariga tahdid, noto'g'ri to'xtash, xavfli boshqaruv hamda infratuzilmaga ta'sir kabi masalalar tashvishga solishi mumkin. Baholashga ko'ra, bunday xatarlarga skuter boshqaruvchisining xatti-harakati, qatnov sharoiti, piyodalar oqimi, mavjud cheklovlar va nazorat choralarining samaradorligi ta'sir qiladi.

Ekologik va ijtimoiy baholash doirasida yo'l harakati hamda xavfsizligi alohida o'rganildi. Hodisalar soni jami safarlarga nisbatan ancha past bo'lsa-da, xulq-atvor, infratuzilma va ish jarayoni omillari xatarga ta'sir etishda davom etadi.

Baholash jamoatchilik fikri kelgusida tezlik, to'xtash joylari, foydalanuvchini tasdiqlash, sug'urta, ma'lumot almashuvi va operatsion nazoratga doir munitsipal qoidalarga ta'sir qilishi mumkinligini qayd etdi.

Raqamli tizimlar va telematika parkni yuritish, foydalanuvchilarni nazorat qilish, ishlarni kuzatish hamda jamoatchilik salomatligi bilan bog'liq xatarlarni boshqarishda muhim o'rin tutadi.

Takomillashtirish yo'nalishlariga jamoatchilik salomatligi va xavfsizligini boshqarish, ma'lumotlarga asoslangan kuzatuv, hodisalar tahlili, yuqori xatarli hududlarni aniqlash, foydalanuvchi xatti-harakatini kuzatish hamda manfaatdor tomonlar bilan aloqa kiradi. Yo'l xavfsizligini rejalashtirish jarayoniga tizimli kiritish ham zarur.

Umuman olganda, kompaniya jamoatchilik salomatligi va xavfsizligini ta'minlaydigan bir qator nazorat choralarini yaratgan. Biroq YTTB talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiq rasmiy xavf bahosi, muntazam kuzatuv va yo'l harakatini boshqarishni yanada kuchaytirish mumkin.

5. ASOSIY EKOLOGIK VA IJTIMOY MASALALAR VA ULARNI YUMSHATISH CHORALARI

5.1. Ekologik va ijtimoiy talablarning birinchisi: xavf hamda ta'sirlarni baholash va boshqarish

Baholash kompaniyada mehnat salomatligi va xavfsizligi, xodimlar bilan ishlash, operatsion nazorat, manfaatdor tomonlarni jalb etish va korporativ boshqaruvga oid ekologik-ijtimoiy siyosatlar hamda tartiblar mavjudligini aniqladi.

Ushbu tartiblar hozircha alohida hujjat va amaliyotlar orqali bajariladi. Ular YTTB talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga mos yagona ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimiga hali to'liq birlashtirilmagan.

Ekologik-ijtimoiy boshqaruv, kuzatuv va hisobot, qonunchilikka muvofiqlik, pudratchilar hamda ta'minot zanjiri, ish ma'lumotlarini birlashtirish, iqlim xatarlarini baholash va hujjat nazoratini kuchaytirish imkoniyatlari aniqlandi.

Kompaniyaning ish tizimlarida ekologik va ijtimoiy samaradorlikka oid ma'lumotlar mavjud. Biroq ular kompaniya ishlaydigan barcha mamlakatlar bo'yicha yagona kuzatuv tuzilmasiga hali to'liq jamlanmagan. Parkni yuritish va foydalanuvchilar bilan aloqani ta'minlaydigan axborot texnologiyalari boshqaruvi, kiberxavfsizlik hamda raqamli vositalar nazoratini kuchaytirish ham zarur.

Yangi hududlar uchun ekologik va ijtimoiy baholash jarayonlarini kuchaytirish imkoniyatlari ham belgilandi. Bunda yo'l harakati, iqlim va ta'minot zanjiri bilan bog'liq xatarlar hisobga olinadi.

Ekologik va ijtimoiy baholash YTTB talablariga mos yagona boshqaruv tizimini joriy etishni tavsiya qiladi. U boshqaruv tartiblari, xavf bahosi, kuzatuv, manfaatdor tomonlar bilan aloqa, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, hodisalarni ko'rib chiqish va uzluksiz takomillashtirishni qamrab oladi.

Yagona tizim barcha ish yo'nalishlarida ekologik va ijtimoiy xatarlarni izchil nazorat qilish uchun kompaniyaning mavjud boshqaruv vositalari hamda raqamli platformalariga birlashtiriladi.

5.2. Ikkinchi ekologik va ijtimoiy talab: mehnat va ish sharoitlari

Amaldagi mehnat siyosatlari teng imkoniyatlar, bolalar va majburiy mehnatning oldini olish, ish joyidagi xulq-atvor, gender asosidagi zo'ravonlik hamda tazyiq, bandlik sharoiti va xodimlar xavfsizligiga oid vazifalarni qamrab oladi.

Xodimlar odatda ish tartibi, haq to'lash va ta'til shartlarini belgilovchi yozma mehnat shartnomalari asosida qabul qilinadi. Texnik ko'rik, zaryadlash, logistika hamda dala vazifalarini bajaruvchilarga tegishli o'qitish va shaxsiy himoya vositalari beriladi. Tashrif paytidagi suhbatlarda mehnat sharoiti yoki ish joyidagi munosabatlarga doir jiddiy muammo qayd etilmadi. Kompaniya xodimlar bilan aloqa va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini ham joriy etgan.

Biroq mehnatni boshqarish tizimi va rasmiy tartiblarni bir necha yo'nalishda kuchaytirish mumkin.

Baholash yangi xodimlarga boshlang'ich yo'riq berish va ularni ishga moslashtirish asosan rahbar nazorati hamda norasmiy tanishtirish orqali bajarilishini ko'rsatdi. Shu sababli huquqlar, ish joyidagi xulq-atvor, shikoyat mexanizmlari, salomatlik va xavfsizlik vazifalari hamda kasbiy talablarni qamrab olgan tuzilmali o'qitish dasturi joriy etiladi.

Shuningdek, boshlang'ich o'qitish, pudratchilar nazorati, psixososial xatarlar, xodimlar farovonligi, hujjat yuritish va mehnat jarayonlarini kompaniyaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimiga kiritish imkoniyatlari aniqlandi.

5.3. Uchinchi ekologik va ijtimoiy talab: resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish

Loyiha ishlab chiqarish, sezilarli sanoat gaz emissiyasi yoki katta ko'lamli ifloslanish manbalarini nazarda tutmaydi. Kompaniya asosan xizmat ko'rsatadi; ekologik jihatlar akkumulyatorlarni zaryadlash uchun elektr sarfi, skuterlarni yuvish va maishiy ehtiyojlar uchun suv, texnik ko'rikdan hosil bo'ladigan chiqindi, elektron uskunalar, logistika yoqilg'isi hamda bilvosita issiqxona gazlari emissiyasiga taalluqlidir.

Baholash kompaniya akkumulyatorlar, texnik ko'rik va chiqindilar bilan ishlashga oid nazorat choralarini joriy etganini aniqladi. Biroq barcha yo'nalishlarda ekologik boshqaruv, samaradorlik kuzatuv va resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytirish mumkin.

Takomillashtirish resurs sarfini hisobga olish, chiqindilarni qayta ishlash, akkumulyatorning butun xizmat davrini nazorat qilish, xavfli materiallar hamda kimyoviy moddalar bilan muomala, issiqxona gazlari emissiyasini o'lchash, oqova suvlarni kuzatish va mamlakatlar kesimidagi ekologik ma'lumotlarni birlashtirishni qamrab oladi.

Loyiha qisqa masofalar uchun gaz emissiyasi kam bo'lgan transport muqobillarini taqdim etadi va yuqori emissiyali vositalarga qaramlikni kamaytiradi. Shu tariqa u barqaror shahar transporti maqsadlariga hissa qo'shadi.

YTTB talablari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga mos resurs samaradorligi hamda ifloslanishning oldini olish tizimini joriy etish tavsiya qilindi. U resurs sarfi, chiqindi hosil bo'lishi, issiqxona gazlari emissiyasi va ekologik ko'rsatkichlarni muntazam kuzatadi. Ish amaliyoti davriy ko'rib chiqilib, tabiiy resurslardan foydalanish yaxshilanadi va atrof-muhitga ta'sir kamaytiriladi.

5.4. To'rtinchi ekologik va ijtimoiy talab: sog'liq va xavfsizlik

Loyiha shahar muhitida umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlarini yuritish bilan bog'liq kasbiy va jamoatchilik xatarlarini yuzaga keltiradi. Ular litiy-ion akkumulyatorlar, elektr tizimlari, texnik ko'rik, logistika, ish jarayonidagi yo'l harakati, foydalanuvchilar xatti-harakati hamda skuterlar bilan piyoda va boshqa qatnov ishtirokchilari o'rtasidagi aloqaga taalluqlidir.

Mehnat salomatligi va xavfsizligi

Kasbiy xavflarga elektr toki, akkumulyatorlarni saqlash va tashish, yong'in, texnik ko'rik, yuklarni qo'lda ko'tarish, kimyoviy moddalar, yo'l harakati hamda dala ishlaridan keladigan psixososial omillar kiradi.

Baholash kompaniya akkumulyatorlar bilan ishlash, yong'in va elektr xavfsizligi hamda dala xodimlari uchun tegishli tartiblarni joriy etganini ko'rsatdi. Tashrif vaqtida xodimlar shaxsiy himoya vositalaridan foydalandi, obyektlarda esa asosiy yong'inga qarshi jihozlar va birinchi yordam anjomlari mavjud edi. Loyiha doirasida kasbiy salomatlikni boshqarish tizimi yanada kuchaytiriladi va rasmiylashtiriladi. U xavflarni baholash, hodisalarni tekshirish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, psixososial omillar va barcha yo'nalishlardagi kuzatuvni qamrab oladi.

Yo'l harakati xavfsizligi

Yo'l harakati va xavfsizligi bo'yicha baholash xatarlarga foydalanuvchi xatti-harakati, piyodalar hamda zaif qatnov ishtirokchilari bilan aloqa, transport sharoiti, infratuzilma cheklovlari va shahar darajasidagi nazorat ta'sir etishini ko'rsatdi. Kompaniya tezlikni boshqarish, geohududiy cheklov, to'xtash joylarini nazorat qilish, foydalanuvchilarga ko'rsatma berish, skuterlarni ko'rikdan o'tkazish va belgilangan zonalarda ishlash qoidalarini joriy etgan.

Loyiha davomida ma'lumotlarga asoslangan yo'l xavfsizligi kuzatuv, hodisalar tahlili, yuqori xatarli hududlarni aniqlash, dala xodimlari yo'nalishini rejalashtirish, foydalanuvchilar xabardorligini oshirish

va munitsipal organlar bilan hamkorlik takomillashtiriladi. Ushbu masalalar kundalik ishlarni rejalashtirishga kiritiladi.

Jamoatchilik salomatligi va xavfsizligi

Baholash foydalanuvchi xatti-harakati, piyodalar bilan aloqa, noto'g'ri to'xtash, zaif qatnov ishtirokchilari va elektr skuterlarning jamoat joylarida ishlatilishi bilan bog'liq xatarlarni aniqladi. Kompaniya xavfsiz foydalanish uchun nazorat choralarini joriy etgan. Biroq joyga xos xavf bahosi, ma'lumotlarni muntazam kuzatish, telematika va hodisa yozuvlarini qaror qabul qilishda qo'llash, manfaatdor tomonlar bilan aloqa hamda natijaga qarab tartiblarni yangilash orqali jamoatchilik salomatligi va xavfsizligini yanada kuchaytirish mumkin.

Umuman olganda, kompaniya xodimlar va jamoatchilik salomatligi hamda xavfsizligini ta'minlovchi bir qator nazorat choralarini yaratgan. Biroq amaldagi mahalliy me'yorlar, YTTB talablari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiq yo'l harakati boshqaruvi, kuzatuv tartiblari hamda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni yanada kuchaytirish mumkin.

5.5. O'ninchi ekologik va ijtimoiy talab: axborotni oshkor etish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish

Loyiha xodimlar, shartnoma asosidagi ishchilar, foydalanuvchilar, piyodalar, munitsipal organlar, yetkazib beruvchilar, pudratchilar, mahalliy hamjamiyatlar va kompaniya hududlaridagi shahar infratuzilmasidan foydalanuvchi boshqa guruhlar bilan o'zaro aloqani nazarda tutadi.

Kompaniyada turli shaharlar uchun manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejaları mavjud. Ular guruhlarini aniqlash, axborotni oshkor etish, maslahatlashuv va shikoyatlarni boshqarish uchun tuzilmali asos yaratadi. Loyiha bir nechta joyda amalga oshirilgani sababli ushbu jarayonlarni kompaniya miqyosida bir xil tartibga keltiradigan umumiy reja ishlab chiqiladi.

Baholash kompaniya manfaatdor tomonlar bilan aloqa va shikoyatlarni boshqarish tartiblarini yaratganini ko'rsatdi. Rejani kuchaytirish uchun guruhlar xaritasini davriy yangilash, zaif qatamlar bilan aloqani yaxshilash, tadbirlarni hujjatlashtirish va hisobot berish, gender jihatini hisobga olish hamda bildirilgan fikrlarni rejalashtirish va ekologik-ijtimoiy boshqaruvga kiritish tavsiya etildi.

Manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqa va YTTB talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga doimiy moslik uchun reja izchil bajarilishi, davriy ko'rib chiqilishi va yangilanib borishi tavsiya etiladi.

6. EKOLOGIK VA IJTIMOY HARAkatLAR REJASI (EIHR)

6.1. Ekologik va ijtimoiy talablarning birinchisi: xavf hamda ta'sirlarni baholash va boshqarish

EIHR YTTB talablari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiq yagona boshqaruv tizimini ishlab chiqish hamda joriy etishni nazarda tutadi. Tizim ekologiya, ijtimoiy masalalar, sog'liq va xavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish hamda kiberxavfsizlikni barcha ish yo'nalishlarida qamrab oladi. Asosiy chora-tadbirlar korporativ siyosatlar, boshqaruv tartiblari, qonunchilikka muvofiqlik, xavf bahosi, operatsion rejalar, mehnat munosabatlari, manfaatdor tomonlar bilan aloqa, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, hujjat nazorati, kuzatuv, hisobot, samaradorlik ko'rsatkichlari va rahbariyat tahlilidan iborat. Ish hamda raqamli ma'lumotlar ekologik-ijtimoiy qaror qabul qilish jarayoniga birlashtiriladi; buning uchun tegishli salohiyat, o'qitish va resurslar ajratiladi.

6.2. Ikkinchi ekologik va ijtimoiy talab: mehnat va ish sharoitlari

EIHR doirasida tuzilmali boshlang'ich o'qitish, charchoq xatarini kuzatish, yetkazib beruvchilar tizimi va odob-axloq kodeksi, pudratchilar tartibi, xodimlar shikoyat mexanizmi, psixososial xavflar,

farovonlik dasturlari hamda mehnat salomatligi yozuvlari kuchaytiriladi. Shuningdek, tegishli hujjatlar takomillashtirilib, mehnatni boshqarish tartiblari kompaniyaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimiga kiritiladi. Bu yondashuv kompaniya ishlaydigan barcha mamlakatlarda bir xil qo'llanadi.

6.3. Uchinchi ekologik va ijtimoiy talab: resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish

EIHR kompaniya ish ko'lamiga mos resurs samaradorligi va ekologik boshqaruv amaliyotlarini kuchaytiradi. Bunda energiya sarfi, akkumulyatorning butun xizmat davri, chiqindilar, ifloslanishning oldini olish va me'yorlarga muvofiqlikka alohida e'tibor beriladi. Chora-tadbirlar kimyoviy moddalar bilan muomala, ekologik kuzatuv, ish ma'lumotlarini birlashtirish hamda samaradorlikni davriy baholashni ham qamrab oladi. Bu yo'nalishlar uzluksiz yaxshilanishga xizmat qiladi.

6.4. To'rtinchi ekologik va ijtimoiy talab: sog'liq va xavfsizlik

EIHR kompaniyaning barcha yo'nalishlarida xodimlar, yo'l harakati va jamoatchilik salomatligi hamda xavfsizligini boshqarishni kuchaytirishga qaratilgan. Asosiy chora-tadbirlar yagona boshqaruv tizimiga kiritilgan rasmiy mehnat muhofazasi tartibi, kasbiy xatarlarni baholash, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, xodimlar salomatligini kuzatish, psixososial omillar, pudratchilar va akkumulyatorlar xavfsizligi, hodisalarni tekshirish hamda zararli materiallar bilan to'g'ri ishlashni qamrab oladi. Mavjud yo'l va jamoatchilik xavfsizligi choralari ma'lumotlarga asoslangan kuzatuv, foydalanuvchilar nazorati, joyga xos xavf bahosi, telematika, hodisa yozuvlari va yuqumli kasalliklarning oldini olish vositalari orqali muntazam yangilanadi.

6.5. O'ninchi ekologik va ijtimoiy talab: axborotni oshkor etish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish

EIHR manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqa, axborotni oshkor etish va shikoyatlarni boshqarish uchun tegishli rejalarni barcha yo'nalishlarda amalga oshirish hamda davriy ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Chora-tadbirlarga guruhlar xaritasini tuzish, barchani va gender jihatini hisobga olgan muloqot, ichki hamda tashqi shikoyat mexanizmlari, murojaatlarni kuzatish va hal etish, tadbirlarni hujjatlashtirish, hisobot berish, bildirilgan fikrlarni qaror qabul qilishga kiritish hamda tegishli ekologik-ijtimoiy ma'lumotlarni muntazam e'lon qilish kiradi.

6.6. Amalga oshirish va monitoring

EIHRning bajarilishi YTTBning Loyiha uchun belgilangan ekologik va ijtimoiy kuzatuv talablari asosida nazorat qilinadi. Kompaniya tavsiya etilgan chora-tadbirlarni barcha yo'nalishlarda bosqichma-bosqich bajaradi va ularni yagona boshqaruv tizimi, rahbariyat jarayonlari hamda kundalik qarorlarga kiritadi.

Kuzatuv EIHRning bajarilishi, ekologik-ijtimoiy samaradorlik, mehnat salomatligi va xavfsizligi, manfaatdor tomonlar bilan aloqa, shikoyatlar, hodisalar haqidagi hisobot, me'yorlarga muvofiqlik va tuzatish choralari davriy ko'rib chiqishni qamrab oladi. Kompaniya majburiyatlar bajarilganini tasdiqlovchi yozuvlarni yuritadi hamda jarayon va natijalar haqida YTTBga muntazam hisobot beradi.

EIHR ekologik-ijtimoiy boshqaruv va ish samaradorligini uzluksiz yaxshilashga, shuningdek YTTBning tegishli talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan.

7. IJOBIY EKOLOGIK VA IJTIMOY SAMARALAR

Loyiha gaz emissiyasi kam bo'lgan umumiy foydalanishdagi shahar harakatlanish xizmatlarini rivojlantirish va barqaror transport muqobillarini kengaytirish orqali ijobiy ekologik hamda ijtimoiy

samara berishi kutilmoqda. U safarning boshlang'ich va yakuniy qismlaridagi bog'lanishni yaxshilaydi, qisqa masofalarda transportdan foydalanish imkoniyati hamda moslashuvchanligini oshiradi va yanada barqaror tizimlarga o'tishga xizmat qiladi.

Kutilayotgan natijalar kam uglerodli transportni ommalashtirish, integratsiyalashgan shahar harakatlanishini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va issiqxona gazlari miqdorini kamaytirishni qamrab oladi. Baholash ma'lumotlariga ko'ra, kompaniya platformadagi ayrim safarlar aks holda gaz emissiyasi yuqori bo'lgan vositalarda bajarilgan bo'lishini taxmin qiladi. Shu sababli xizmat issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirishga hissa qo'shadi.

Loyiha mobil ilovalar, telematika, park kuzatuv va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv orqali raqamli harakatlanishni rivojlantiradi. Bu vositalar ish samaradorligi hamda xizmat sifatini oshiradi. Skuterlar va boshqa qismlarni muntazam ta'mirlash, shuningdek ularning foydalanish muddatini uzaytirish vaqt o'tishi bilan resurs sarfi va materiallar iste'molini kamaytiradi.

Loyiha YTTBning korporativ ulushli kapital metodologiyasi bo'yicha Parij bitimining iqlim o'zgarishini yumshatish maqsadlariga mos deb topilgan. U kompaniya ishlaydigan mamlakatlarda barqaror shahar harakatlanishi va gaz emissiyasi kam bo'lgan transportga ijobiy hissa qo'shishi kutilmoqda.

8. MANFAATDOR TOMONLARNI JALB QILISH VA ALOQALAR

Manfaatdor tomonlarni jalb qilish Loyi haning muhim qismidir, chunki kompaniyaning umumiy foydalanishdagi mikromobillik xizmatlari jamoatchilikka bevosita taqdim etiladi. Ular foydalanuvchilar, piyodalar, mahalliy hamjamiyatlar, munitsipal organlar va boshqa yo'l harakati ishtirokchilari bilan muntazam aloqani talab qiladi.

Kompaniya Loyiha davomida guruhlar ni aniqlash, axborotni oshkor etish, maslahatlashuv va shikoyatlarni boshqarish uchun joyga xos bir nechta manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasini ishlab chiqqan. Har bir hujjat asosiy ishtirokchilarni, mos muloqot usullarini va aloqa kanallarini belgilaydi. Rejalar ish jarayoni hamda bildirilgan fikrlarga qarab davriy ko'rib chiqiladi va yangilanadi.

Asosiy guruhlar ga xodimlar, shartnoma asosidagi ishchilar, foydalanuvchilar, munitsipal organlar, transportni tartibga soluvchi tashkilotlar, mahalliy hamjamiyatlar, piyodalar, zaif qatnov ishtirokchilari, yetkazib beruvchilar, pudratchilar va tegishli davlat idoralari kiradi.

Muloqot kompaniyaning mobil ilovasi, mijozlar ga xizmat ko'rsatish platformalari, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, munitsipal organlar bilan bevosita uchrashuvlar hamda xodimlar uchun ichki kanallar orqali olib boriladi.

Kompaniya ichki va tashqi manfaatdor tomonlar uchun shikoyat mexanizmlarini yaratgan. Izoh, tashvish yoki murojaat mijozlar ga xizmat ko'rsatish kanallari, mobil ilova, elektron pochta va boshqa mavjud platformalar orqali yuborilishi mumkin. Shikoyatlar maxfiylik hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablari asosida ko'rib chiqiladi. Tendensiyalar davriy tahlil qilinib, ish samaradorligi va ekologik-ijtimoiy boshqaruvni yaxshilashda qo'llanadi.

Loyiha tasdiqlangach, jarayonlarni bir xil tartibga keltirish va barcha guruhlar ni, jumladan zaif hamda yetarli vakillikka ega bo'lmagan qatlamlarni qamrab olish uchun kompaniya miqyosidagi umumiy reja ishlab chiqiladi. Bildirilgan fikrlar foydalanuvchilar xabardorligi, ish jarayoni xavfsizligi hamda jamoatchilik salomatligini kompaniya ishlaydigan mamlakatlarda uzluksiz yaxshilash uchun qo'llanadi.

Loyiha bo'yicha aloqa va shikoyat yuborish

Sapar loyihasining qisqacha bayoni

Loyiha haqida qo'shimcha ma'lumot olish, izoh yoki tashvish bildirish yoxud shikoyat yuborishni istagan shaxslar quyidagi manzilga murojaat qilishi mumkin:

Aloqa ma'lumotlari: feedback@jetshr.com

Zarur hollarda shikoyat kompaniyaning mavjud mijozlarga xizmat ko'rsatish kanallari yoki mobil ilovasi orqali ham yuborilishi mumkin. Barcha murojaatlar manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi va belgilangan tartib-taomillarga muvofiq ko'rib chiqiladi.

9. XULOSA

Sapar loyihasi bo'yicha ekologik va ijtimoiy baholash o'tkazildi. Jarayon YTTBning 2024-yildagi Ekologik va ijtimoiy siyosati, tegishli EITlar, amaldagi milliy me'yorlar hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiq olib borildi.

Baholash Loyihaning ta'sirlari asosan kundalik ishlar bilan bog'liq, muayyan obyektga xos va boshqarilishi mumkinligini ko'rsatdi. Loyiha yirik sanoat ishlab chiqarishi yoki katta doimiy infratuzilmani nazarda tutmaydi; tabiatan og'ir ekologik yoxud ijtimoiy oqibatlar aniqlanmadi.

Baholash kompaniya ekologik-ijtimoiy boshqaruv, mehnat sharoitlari, xodimlar va jamoatchilik salomatligi, ish jarayoni xavfsizligi, akkumulyatorlar, manfaatdor tomonlar hamda raqamli tizimlarga oid bir qator nazorat choralari yaratganini aniqladi. Biroq samaradorlik kuzatuv, yo'l harakati, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, pudratchilar nazorati va kompaniya miqyosidagi manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasini yanada kuchaytirish mumkin.

Kompaniyaning boshqaruv tizimlari va ish amaliyotlarini YTTB talablari hamda yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga izchil moslashtirish uchun EIHR ishlab chiqildi.

EIHR bajarilgach, Loyiha YTTBning tegishli EITlari va yaxshi xalqaro tarmoq amaliyotiga muvofiq ishlashi mumkin deb hisoblanadi. U YTTBning korporativ ulushli kapital metodologiyasi bo'yicha Parij bitimining iqlim o'zgarishini yumshatish maqsadlariga mos deb topildi. Shuningdek, kompaniya ishlaydigan mamlakatlarda gaz emissiyasi kam bo'lgan transport, raqamli harakatlanish yechimlari va safarning boshlang'ich hamda yakuniy qismlaridagi yaxshilangan bog'lanish orqali barqaror shahar qatnoviga ijobiy hissa qo'shishi kutilmoqda.